

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani
_____ dos.M.Rabbimov.
“_____” _____ 2012 y.

5141700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Mavzu: Boshlang'ich sinflarda fe'l va olmosh so'z turkumlarini o'rganish
metodikasi** mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: MUSTAFAEVA M.

Ilmiy rahbar: Isroilova F.

Ishni himoyaga tavsiya etaman: **Isroilova F**
(илмий раҳбар исми ва шарифи)

_____ (ИМЗО)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti
kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 4.05.2012 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A.
(Ismi va sharifi)

_____ (imzo)

Jizzax - 2012

R E J A:

KIRISH.....

I BOB. OT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH.....

- 1.1. Ot so`z turkumini o`rganish.....
- 1.2. Otlarda egalik, kelishik qo`shimchalari va imlosi.....
- 1.3. Otning tarkibiy qismlari va yasalishi ustida ishlash.....
- 1.4. Qo`shma, juft, takror va qisqartma otlar ustida ishlash.....

II BOB. SIFAT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH.....

- 2.1. Sifatning ma'no guruhlari va darajalarini o`rganish.....
- 2.2. Sifat darajalarini o`rganish.....
- 2.3. Ko'chaytirma va orttirma sifatlar.....

XULOSALAR.....

ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

MBI mavzusining dolzarbligi. Ma'lumki, sho'ro pedagogikasi o'quvchiga tayyor bilimlar berishning xilma-xil usullarini o'ylab topdi. Ko'proq bilim o'zlashtirilishi uchun har xil ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar ishlab chiqarildi. Pirovard natijada, bolalar tayyor bilimlarni xotirasiga joylab olishigina kerakligiga ko'nikildi. Pedagogika ilmida ham, amaliyotda ham o'quvchining ruhiy-milliy xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari, bilim olish va tarbiyalanish yo'lidagi erkinligi etarlicha hisobga olinmadi. Shuning uchun ham berilgan bilimlar bolalarning aksariyatiga "yuqmadi". Ularning ko'pchiligi maktabdan, o'qishdan, kitob mutolaasidan bezib qoldi. Hamisha o'qituvchini tinglayverish, tayyor bilimlarni o'zlashtirish kerakligi o'quvchilarni o'qimaydigan qilib qo'ydi. Holbuki bilimni tayyor holda o'zlashtirish mumkin emas. O'quvchining intellektual imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga aralashtirmay turib na bilimli, va na tarbiyali talabalarni shakllantirib bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqib, o'quvchilar kamolatini ta'minlashda ularning bevosita ishtiroki, bilim olish va tarbiyalanishda o'zlarining qatnashishi yangilangan pedagogikada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunga, har bir alohida bolaning shaxs sifatida shakllanishida o'zining qatnashuvi, ixtiyoriy ishtirokiga uning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg'otmay turib erishib bo'lmaydi. Bu kabi ehtiyoj va qiziqish faqat fikr kishisida bo'ladi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning

interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining **«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch»** asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi².

Ma'lumki, shaxs ma'naviyati va tafakkuri chambarchas bog'liq. Shuningdek, adabiy ta'limda bir estetik hodisaga turlisha baho berish imkoniyati bor. Shu sabab ham adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqqil fikirlashga o'rgatishning ilmiy – metodik asoslarini yaratish davlat darajasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MBIning maqsadi boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish metodikasini belgilashdir.

MBIning vazifalari quyidagilardan iborat:

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 6.7.

² I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

1. boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganishda qo'yiladigan talablarni aniqlash;

2. boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish -o'quvchilar nutqi va ularning tafakkurini o'stirishda muhim vosita ekanligi ko'rsatish;

3. boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish metodikasining o'rni hamda ahamiyatini ochib berish.

MBIning ilmiy yangiligi. boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish metodikasi mavzusidagi MBIda quyidagi ilmiy – metodik muammolar o'z echimini topadi:

1. boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish o'quvchilarning nutqini o'stirishda o'rni belgilab berildi hamda ulardan tadqiqot maqsadi yo'lida foydalanish usullari ko'rsatildi.

2. boshlang'ich sinflarda fe'l va olmosh so'z turkumlarini o'rganish jarayoniga muammoli ta'limning olib kirilishi tarbiyalanuvchilarning nutqini o'stirishning asosi ekanligi isbot qilindi.

3. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish nazariy jihatdan asoslandi, amaliy tomondan ko'rsatib berildi.

MBI natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning ilmiy– nazariy ahamiyati shundaki, unda

- boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganish metodikasining pedagogik–psixologik xususiyatlari aniqlanganida;

- boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlariga ta'rif berilganda;

- boshlang'ich sinflarda ot va sifat so'z turkumlarini o'rganishda bolalarda tafakkur mustaqilligini ta'minlashning ilmiy – metodik yo'llari belgilanganda;

- o'quvchilarning nutqini o'stirishda turli mantiqiy metodlardan foydalanishning nazariy yo'llari yoritilganda;

- boshlang'ich sinflarda fe'l va olmosh so'z turkumlarini o'rganish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilganida ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

MBI natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi. Mazkur muammo tadqiqiga ilmiy–nazariy jihatdan xolislik bilan yondashildi, pedagogik, psixologik, metodik va ijtimoiy va amaliy qarashlarni solishtirish, taqqoslash tufayligina xulosalar chiqarildi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga monand tekshirish usullaridan foydalanilgani, muammoni hal etish jarayonida mavjud tarixiy hamda eng yangi pedagogik, psixologik, ilmiy–metodik adabiyotlarga tayanilganligi ham xulosalarning asoslanganligini ko'rsatadi. g'oyalarning hayotiyligi o'tkazilgan tajriba – sinov ishlari natijalarida va tayyorlangan didaktik ashyolarda o'z ifodasini topgan. Tadqiqotda taklif etilgan usullardan foydalanib darslar o'tilganda, MBIda ilgari surilgan g'oyalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan didaktik ashyolar amaliyotda qo'llanilganda, o'quvchilarni nutqini o'stirishda samarali bo'ldi. Bu ko'rsatgichlar tajriba – sinov ishlari tahlili va jadvallarda o'z ifodasini topdi.

MBIning tuzilishi va hajmi. MBI “ Kirish”, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. OT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH

1.1. OT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH

Ot so`z turkumiga mansub so`zlarni to`g`ri talaffuz qilish, to`g`ri, yozish, lug`aviy ma'nolarini bilish hamda nutqda to`g`ri va o`z o`rnida qo`llay olishni o`rganish – mazkur mavzuning asosiy maqsadi bo`lishi lozim.

Otlarning lug`aviy ma'nolari, ularda uyadoshlik paradigmatisasi (guruhlash, turkumlash, qatorni davom ettirish) ustida ishlash «Umumiy o`rta ta'lim davlat ta'lim standartlari» talablariga ko`ra o`quvchining kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otlarda uyadoshlik hodisalarini o`rganish o`quvchi so`z boyligini oshirishning asosiy shartidir. Chunonchi, o`simlik, hayvon, idish – tovoq, taom, odam, parranda, va h.k. nomlarini guruhlarga ajratib, uyadoshlarini topib yozish kabi vazifalarni bajarish mumkin.

Berilgan daraxt nomlari: chinor, terak, tol; olma, olcha, bodom, kashnich, shivit, rayxon; ra'no, nargiz, gunafsha kabilarni guruhlarga ajratish va uyalarni davom ettirish kabi topshiriqlar o`quvchilarning tabiiyot fanidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, atamalarni qayta esga olishga, nutqda to`g`ri va o`z o`rnida qo`llashga o`rgatadi.

Ot so`z turkumi haqida o`rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bog`lab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi matnlardan ma'rifiy foydalansa bo`ladi.

Ta'limiy diktant

Mustaqilligimizni qo`lga kiritganimizga ham o`n yildan oshdi. ?isqa muddatda Qzbekistonning o`z taraqqiyot yo`li ishlab chiqildi. Bu yo`l

mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlaridan to'laroq, samaraliroq foydalanishni, xalqimizning milliy qadriyatlari, qadimiy an'analari, boy ma'naviyatini tiklash bilan qo'shib olib borishni ko'zda tutdi.

Birinchi navbatda, ona tilimizga davlat maqomi berildi. Din-diyonat qaytarildi. Tarix va kelajagimizga o'z ko'zimiz bilan boqib, o'z aqlimiz bilan baho bera boshladik.

Darhaqiqat, istiqlool moddiy - ma'naviy sohadagi bugungi yuksalishimizning, dunyo bilan erkin, tengma-teng munosabatlarimizning tamal toshidir.

Matnni tahlil qilishda ta'limning oldingi bosqinchlarida o'rganilgan ot so'z turkumi haqidagi ma'lumotlariga tayaniladi. Bunda quyidagi amaliy topshiriqlar bajariladi.

1 – topshiriq. Matnda uchragan otlarning lug'aviy ma'nosini sharhlang. Qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

2 – topshiriq. Ajratilgan so'zlarga, ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlang.

3 – topshiriq. Kim? nima? qayer? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini ayting. Ular bilan otQot, sifatQot, sonQot qoliqli so'z birikmalarini tuzing.

4. Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

5. Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yarating.

Mazkur yo'nalishdagi MYaBT – matn yaratishning bosqichli tizimi o'quvchining kommunikativ savodxonlik darajasini, aniq ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Diktant tarkibidagi soʻzlar yuqoridagidek ogʻzaki sharhlansa, oʻquvchining tafakkur doirasi kengayadi;

fikr ifodalash koʻnikmasi shakllanadi;

nutqda soʻz qoʻllash malakasi shakllanadi;

toʻgʻri matn yaratish koʻnikmasi hosil boʻladi.

Ona tili mashgʻulotlarini ana shunday rivojlantiruvchi oʻquv topshiriqlari, mashiqalar va matn taqillilar vositasida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, taʼlim mazmunini takomillashtiradi, oʻquv biluv faoliyatini jadallashtiradi. Nazariyani amaliyot zaminida oʻrganish mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatni oʻstirishga yordam beradi.

Amaliyot orqali nazariyani egallashning eng ishonchli vositalaridan biri til hodisalarini kuzatish, anglash, farqlash va taqlil qilishdir. (Taqlilga tayanib, umumiy xulosalar chiqarish, mashgʻulotlarda soʻzga ehtiyoj hosil qiluvchi oʻquv topshiriqlari orqali maʼnodoshlar, uyadoshlar, zid maʼnoli soʻzlar ustida ishlash; ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi oʻquv topshiriqlarini mustaqil bajarish; gap qurish va matn yaratish).

Morfologik tahlil namunasi

1 – topshiriq. «Diyorimizni» soʻzini morfologik taqlil qiling.

1) Diyorimizni – ot, turdosh ot, aniq, sodda, tub, I shaxs koʻplikda tushum kelishigida;

2) Di–yo–ri–miz–ni 5 boʻgʻin (4 ochiq boʻgʻin, 1 yopiq boʻgʻin).

2 – topshiriq. Birinchi topshiriqda berilgan soʻzning lugʻaviy maʼnosini sharhlash: soʻz maʼnodoshlari (diyor-yurt, vatan, oʻlka, viloyat, manzil);

uyadoshlari (diyor, viloyat, jumhuriyat, shahar, tuman, mahalla, ko`cha, guzar, manzil, qishloq, ovul) zid ma'noli (ona diyor - horij; ona yurt – begona yurt va h.k) so`zlar topilib, ular ishtirokida gaplar tuziladi:

Ona diyorimizga tashrif buyirayotgan xorijiy mehmonlarning keti uzilmayapti.

1 - ish. MYaBT – 4 ustida ishlang. MYaBT – 4 jadvalga qarang.

Topilgan ma'nodoshlarga yasovchi qo`shimchalar qo`shib, yasama otlar hosil qilish; yurtdon va vatanparvar, o`lkashunos, manzilgoh, Sho`roqishloq, shaharlik, mahalladosh, yurtchilik, elchilik va h.k.

2 – ish. Tuzilgan yasama so`zlardan so`z birikmalari hosil qiling: bizning mahalla, tug`ilgan manzirim, ona yurt sarhadlari, vatanim chegarasi, mamlakat ichkarisi, ona diyor ko`rinishi va h.k.

3 – ish. Tuzilgan so`z birikmalari ishtirokida gaplar qurish:

1. Bu yil paxta terimiga shaharlik yurtdoshlarimiz ham faol qatnashishdi. 2. Mustaqil respublikamiz o`z taraqqiyotini vatanparvar o`g`lonlar zimmasiga yuklaydi va h.k.

4 – ish. ?urilgan gaplardan eng maqulini tanlab, shu mavzuda matn yarating. Matnda ishtirok etgan otlarni ajratib, ma'no farqlariga ko`ra guruhlang.

Topshiriqlarni bajarish natijasida egallangan bilimlar nazorat qilinadi; so`zning shakli, qurilishi, ko`rinishi tavsiflanadi. Leksik tahlil esa o`quvchi nutq boyligini oshirish, og`zaki va yozma nutqda so`z tanlash, uni o`rinli qo`llash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ona tili

mashg'ulotlarida «So'zning umumiy tahlili» nomli jadvaldan foydalanish yaxshi samara beradi. (4- jadvalga qarang).

Bunda tahlil turlari o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar nutqini otlar bilan boyitishda so'zlarni aniq va mavhumlarga ajratish, istagan matndan ushlashko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan otlarning aniqligi yoki aksincha, mavhumligi asosida ikki guruhga bo'lish, ularni tub va yasamalarga ajratish kabi ijodiy – amaliy ishlarni bajarish so'z boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aniq otlar	Mavhum otlar
Ushlash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan narsa – buyum, shaxs nomlari:	Ushlash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lmagan narsa-buyum nomlari:
Mahsulot, suv, bino; tikuvchi g'azalxon, sinfdosh, bog'bon; qatlama.	Tuyg'u, sevgi, qalb; yaxshi-lik, tikuvchilik; qurquv, aqllilik, quvonch.

Guruhlarni mustaqil davom ettirish, aniq otlardan mavhum otlar hosil (bola – bolalik, sho'x – sho'xlik, loy - loygarchilik) amaliy ishlarni bajarish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. So'z boyligini oshirish esa nutqiy malakani shakllantirish bilan qo'shib o'zaro aloqadorlikda olib borilmog'i maqsadga muvofiqdir.

Atoqli va turdosh otlar mavzusi o'rganilganda, ular ifodalab keladigan shaxs nomlari, kasb - hunar, o'rin – joy, qurol – vosita, qarindoshlik otlari kabi ma'no guruhlari ustida ish olib borishga to'g'ri keladi.

Bu guruhlar (uyalar) ning, chunonchi, kasb - hunar otlarini, tarbiyachilik, shifokorlik, dehqonchilik, hunarmandchilik va shu kabilarning uyadoshlari ustida to`xtalish ham juda foydali.

O`quvchilarga berilgan matnlardan shaxs otlarini ajratish, tub va yasamalarini aniqlash, ularga ma'nodosh va uyadosh so`zlar tanlash, qo`shimchalar (- chi, -(u) vchi, - dosh, - kor, - gar, - shunos kabi) yordamida shaxs otlari yasash, juft shaxs otlari (metodist-o`qituvchi, terapevt – shifokor, muhandis – texnolog kabi) tuzish, ularning imlosini o`rganish kabi ijodiy – amaliy topshiriqlar ustida ishlash yaxshi samara beradi.

Kasb - hunar, o`rin – joy, quro – vosita otlari ustida ishlashda ham yuqoridagi usullardan foydalansa bo`ladi.

Atoqli otlar ustida ishlashda qo`yidagi ma'no guruhlari ustida to`xtalish maqsadga muvofiq:

- shaxs nomi, familiyasi, otasining ismi, taxallusi, laqabini ifodalovchi otlar: Shohida, Shahzod, Xo`jaev, Yashin, Sakson ota;
- jo`g`rofiy nomlar: Qzbekiston, Samarqand, Pomir, Sirdaryo, Orol, Yangier, Balxash;
- tashkilot, korxona, muassasa nomlari: Vazirlar Mahkamasi, «Bahor» ansambli, Navoiy teatri, «Adabiyot» muzeyi, «Kamolot» jamg`armasi;
- sayyora va yulduzlar nomi: Er, ?uyosh, Mars, Mushtariy, Zuhra, ?ulkar, Yupiter, Venera;
- tarixiy hodisalar, gazeta, jurnal., asar, ilmiy muassasalar: Mustaqillik kuni, «Qzbekiston ovozi» gazetasi, Toshkent davlat Milliy universiteti;

- xayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar: ?irko`k, boychivor, ?oplon, Mosh, Govmish, Targ`il;

- «belgi nomiQturdosh ot» qoliqli joy nomlari: Yangiyo`l, Yangiobod, Oqtepa;

- «belgi nomiQatoqli ot» qoliqli jo`g`rofiy nomlar: Markaziy Osiyo Janubiy Koreya, Shimoliy ?ozog`iston;

?isqartma so`zlar orasida ham atoqli otlar ko`p uchraydi. Ularning to`liq nomlari bilan yoki aksincha almashtirish (BAR – Birlashgan Arab Respublikasi, QzMU - Qzbekiston milliy universiteti) lug`at tuzish, sharhlash bajarish nutqiy mahoratning shakllanishida, o`quvchilarning muomila – muloqot madaniyatini egallashlarida ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

Mazkur ishlar jarayonida ijodiy – amaliy ishlar (MYaBT ustida ishlash) ni imlo bilan bog`lab olib borish masalalariga ko`proq ahamiyat berish foydali.

?ozirgi o`zbek adabiy tilida otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Ular bir turdagi predmetlarni boshqa turdan ajratish uchun xizmat qiladi: o`quvchi, kaptar, daraxt, o`simlik ...

Turdosh otlar ifodalagan ma'nosiga ko`ra shaxs, narsa- buyum, kasb - hunar, o`rin – joy, qurol - vosita otlari kabilarni bildiradi. Bu guruhlar yana bir necha uyadoshlarga bo`linadi. Masalan: shaxs otlarining o`qituvchi, shifokor, muhandis, xunarmand, dehqon, bog`bon, cho`pon kabi umum- iste'mol so`zining uyadoshlari; shifokor – terapevt, kardiolog urolog, endikrinolog, ginekolog, venerolog va h.k. kabi uyadoshlari mavjud.

Ona tili mashg'ulotlarida turdosh ot ma'no guruhlari ustida ishlashda mazkur uyalarning har biri ustida to'xtalishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar nutqini shaxs otlari bilan boyitish yuzasidan topshiriqlar berilgan matndan:

- shaxs otlarini ajratish, tub va yasamaligiga ko'ra guruhlash;
- ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab, guruhlarini kengaytirish;

- chi, - uvchi (- vchi), - dosh, - xon, - kor, - gar, - shunos kabi so'z yasovchi qushimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish;

juft shaxs otlari (metodist – olim, metodist - o'qituvchi, muxandis - texnolog) ishtirokida esa so'z birikmalari va gaplar hosil qilish kabi amaliy – ijodiy topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Otning boshqa ma'no guruhlari ustida ishlashda ham shunday ish usullaridan foydalanish mumkin.

Otlarning morfologik belgilaridan biri birlik va ko'plikda qo'llanishi sanaladi.

Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlarga suyanib, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash uchun qo'yidagi savollardan foydalanish mumkin:

- otlarnecha zil sonida qo'llanadi?
- faqat birlikda qo'llanadigan otlar qaysilar?
- ko'plikdagi otlar qaysi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi? ...

O'quvchilar savollarga to'liq javob beradilar, keyin berilgan nazmiy matndagi otlarni aniqlaydilar:

Go`zal dunyo, bahmal bog`lar, ulug` shaharlar,
Zo`r gigantlar, shu kengliklar, shu oliy bino,
Sho`x to`lqinli, tiniq suvli, katta daryolar,
Ulug` Vatan – bari mening qanot ostimda.

O`quvchilar matndagi dunyo, bog`lar, shaharlar, gigantlar, kengliklar, Vatan, qanot kabi so`zlarning birlik va ko`plikda kelganligini, dunyo, Vatan, qanot kabi so`zlar ko`plik qo`shimchasi olganda, anglatadigan xilma – xil ma'nolarni sharhlaydilar. Bunda o`quvchilarning – lar shakl yasovchi qo`shimchali otlarning ma'nolari haqidagi bilimlarini kengaytirish ko`zda tutiladi:

- hurmat (onamlar, buvimlar, bobomlar ...);
- noaniqlik, kuchaytirish, takror,
tahmin (yoz oylari, kuz kunlari ...);
- kinoya, piching (endi xursandmilar, durustlar – ku ...);
- narsa – buyum navi (sutlar, tuzlar, yog`lar ...);
- jamlik (Mirzacho`llar, Sanamlar ...);
- ta'kid (quvonchlari cheksiz, yuzlari qizidi ...);

kabi so`z ma'nolarini ifodalash singari uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turishlarini ham bilib oladilar.

Ko`plik qo`shimchasi (- lar) bilan kelgan so`zlarni qiyoslash orqali ko`plik yoki hurmat, kuchaytirish yoki ta'kidlash kabi ma'nolar anglatishini turli tipdagi mashqlar vositasida so`z birikmasi. Gap MYaBT tizimi bilan ishlash, matn yaratish va undash, ta'kid, jamlik ma'nolari berilgan so`zlarni ajratish va sharhlash o`quvchi bilimini mustahkamlaydi, og`zaki nutq malakasini shakllantiradi.

1.2. Otlarda egalik, kelishik qo`shimchalari va imlosi

Boshlang`ich sinflarda hamda umumta`lim maktablarida otlarning egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi, narsa- buyumning uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishi, yozilishi, qo`shimcha qo`shilganda, otlarning o`zak – negizida tovush o`zgarishi (tilak – tilagi, qirg`oq - qirg`og`i ...), ikkinchi bo`g`indagi a, i yoki u tushib qolishi (shahar – shahrim, qorin-qorni, burun – burni ...) haqidagi o`quvchilar bilimi mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Obro`, mavqe kabi so`zlarga egalik qo`shimchalari (obro`im, mavqeing ...) qo`shilgach, javoblar umumlashtiriladi va xulosalanadi; egalik qo`shimchalari narsa buyumlarni uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildiradi: ular oxiri unli bilan tugagan so`zlarga – m, - ng, - si; ko`plikda – miz, - ngiz, - lari shaklida; undosh bilan tugagan so`zlarga – im, - ing, - i, ko`plikda – imiz, - ingiz, - lari shaklida; tole, obro`, manba kabi so`zlarda esa oxiri unli bilan tugagan bo`lsa-da, - im, - ing, - i, - imiz, - ingiz, - lari tarzida qo`shilishi amaliy mashg`ulot orqali mustahkamlanadi.

Egalik ko`shimchasini olgan ot qaratqich kelishigidagi ot yoki otlashgan so`z, olmoshga qarashli ekani anglashiladi: asarning mazmuni, yaxshining sharofati, bizning quvonchimiz ...

Amaliy mashg`ulot davomida k va q bilan tugagan tuk, tok, xalq kabi bir bo`g`inli, shuningdek, ishtirok, ittifoq kabi ko`p bo`g`inli otlarga egalik qo`shimchasi qo`shilganda, oxirgi undosh aslicha yozilishi, tovush o`zgarmasligi holatlari ham eslatib o`tiladi.

Bu mavzu boshlaigich sinf ukuvchilari uchun murakkab xisoblanadi, chunki bu mavzu urganilgunga kadar, ukuvchilar «shaxs» tushunchasi bilan xali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini xali urganmagan buladilar. Ukuvchilarga egalpk kushimchasi shaxs, narsa birlik va kuplilikdagi uch shaxsdan biriga taallukli ekanini bildirishini tushuntirish kiyin. Shularni xisobga olib, ukuvchilarni otlarda eagalik kushimchalari bilan tanishtirishda ukituvchi ishni sarlavxadagi «egalik» suzining leksik ma'nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofik: egalik ega bo'lish, qarashilik, tegishlilik, oidlik ma'nolarini bildiradi, demak, egalik qo'shimchasi deganda biror narsaga ega bo'lishni, shu narsa tegishli, shu narsaganing egasi ekaninn bildiradigan qo'ushimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo'shimchalari bilan qo'llanadn. Otga qo'shilgan egalik qo'shimchasi shu ot ifodalagan shaxs, narsaning kimgadir qarashli ekanini, shu narsaning egasi ekanini bildiradi. Misollarni kuzataylik;

Kecha o'qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qizgqarlimi? Ra'noning kitobi ham qizikarli edi..

Kitobim, kitobing, kitobi so'zlari so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi. va ukuvchilar kitob — uzak, -im, -ing, -i qo'ushimcha ekani ni aniqlaydilar. O'qituvchi kitob va kitobim so'zlarini taqqoslashni -im k ushimchasiinng ma'nosi xaqida o'ylab ko'rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi; bolalar qo'shimchannng ma'nosi haqiida fikr yuritadilar, ammo kitobim so'zining ma'nosiga (mening kitobim — kitob meniki) tushunsalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. O'qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda uchta shaxs mavjud: so'zlovchi yoki I shaxs, tinglovchi yoki II shaxs, o'zga

yoki III shaxs. Hozir men sizga soʻzlayapman, tushuntiryapman, demak, men — soʻzlovchi, hozir siz meni (tushushirayotgan mavzuimni) tinglayapsiz, demak, siz (sen) tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) — oʻzga hisoblanadi. Siz otlar birlik va koʻplik sonda qoʻllanishini bilasiz. Ma'lumki, biror narsa bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxsga tegishli boʻlishi mumkin. Mana shu ma'nolarni, ya'ni biror shaxs va narsaning birlik yoki koʻplikdagi uch shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qoʻshilgan egalik qoʻshimchalari bildiradi. Masalan, kitobim soʻziga qoʻshilgan, -im qoʻshimchasi kitobning I shaxsga taalluqli ekanini, ya'ni kitobniig egasi I shaxs ekanini bildiradi. (-ing, -i qoʻshimchalari ham shunday tushuntiriladn.) Kitobimiz soʻzidagi -imiz qoʻshimchasi kitob soʻzlovchi shaxsga, shu bilan birga, koʻp shaxsga (koʻp suzlovchiga) tegishli ekanini bildiradi. (-ingiz, -i qoʻshimchalari ham shunday tushuntiriladi.) qisqa xulosa chiqariladi: otlarga qoʻshilgan mana shunday qoʻshimchalar egalik qoʻshimchalari deyiladi. Egalik qoʻshimchalari tegishlilik, egalik ma'nosini bildiradi. Egalik qoʻshimchalari otlarga ikki variantda qoʻshiladi. Akam va kitobim, akang va kitobing, akasi vakitobi kabi oxiri unli va undosh tovush bilan tugagan otlar soʻz tarkibiga koʻra tahlil qilinadi. Koʻshimchalar taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi: oxiri unli tovush bilan tugagan otlarga -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si egalik qoʻshimchalarin, oxiri undosh tovushlar bilan tugagan otlarga -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qoʻshimchalari qoʻshiladi. Shundan soʻng uquvchilar « Ona tili»¹ darsligidagi qoidani oʻrganadilar, jadvalni tahlil qiladilar.

O`quvchilarga egalik qo`shimchalari haqidagi ko`nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo`shimchasi bilan qo`llangan otni topish, uni tarkibiga ko`ra tahlil qilib, egalik qo`shimchasining shaxs-sonini aniqlash; matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qo`shimchasini qo`shish, narsa qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi,

Egalik qo`shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarnng kelishiklar bilan turlanishini o`rganish jarayonida egalik qo`shimchasi bilan qo`llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan (kitobning muqovasi, Rahimning kitobi), kishilik. olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o`rganish jarayonida esa egalik qo`shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog`lanib, so`z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

Otlarning turlanishi. Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarning gapda boshqa so`zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o`r-gatishda o`quvchilarning gapda so`zlarning bog`lanishini bilishlari nazarda tutiladi.. Kelishiklar ustida ishlashni o`quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog`langan so`zlarni (so`z birikmalarini) ajratishga o`rganganlaridan so`ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so`zlarning bog`lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o`quvchi ot gapda qaysi suz bilan bog`langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so`zlar bilan bog`langanda qo`shimchalar bilan o`zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o`quvchilar 1- sinfdayoq, so`z shakllarining o`zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so`z shakli nimaligini hali bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda shakl

yasovchi {soʻz oʻzgartuvchi) qoʻshimchalar bilan tanishadilar, bu qoʻshimchalar gapda soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilishini tushunadilar.

4- sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozishga oʻrgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda oʻrganiladi: 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha borish; 2) koʻplikdagi otlarning turlanishini oʻrgatish; 3) har bir kelishikning xususiyatlarini alohida oʻrganish va u bilan bogʻliq holda kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqida koʻnikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarishi — turlanish haqida tushuncha berish bilan oʻquvchilarga kelishik qoʻshimchalari gapda soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilishi, oʻzbek tilidagi olti kelishik, ularning nomi, soʻroqlari, qoʻshimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi.

Oʻquvchilar turlanish bilan, kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va soʻz birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil suzlar bilan shakl yasovchi qoʻshimchalar (ning, -ni, -ga, -da, -dan) yordamida bogʻlanishini kuzatadilar, bu qoʻshimchalar kelishik qoʻshimchalari ekanini, otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarishi turlanish deyilishini bilib oladilar. Bolalarga kelishiklarning joylashish tartibi, soʻroqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qoʻshimchalari mavjudligi darslikda berilgan jadval yordamida tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi ot gapda ega vazifasida, boshqa

kelishikdagi otlar esa ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun iishi bajarishda izchillik kagga ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: o'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa qarab kelishikni aniqlaydilar. Masalan, yashaydi (qaerda?)— qishloqda o'rin-payt kelishigi). Ular buni yaxshi o'zlashtirganlaridan so'ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va bitta shaxs, narsani bildirishni aytadilar, (n i m a?— kitob, kim?— o'quvchi); o'qituvchi agar shu ot ikki va undan ortiq, shaxs, narsani bildirsa, qanday so'roqda javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qinalmay javob beradilar (nimalar? — kitoblar, kimlar?— o'quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda n i m a l a r? yoki k i m l a r? so'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik qo'shimchasi doim kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shilishini, so'uroqrini bilib oladilar.

Har bir kelishikni alohida o'rganishning vazifasi kelishikni o'rganish bilan bog'liq. holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi malakani

shakllantirish va o'quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish .-hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so'roqlardan foydalaniladi. uning uchun o'quvchilar, birinchidan, so'roqni otning yakka o'ziga emas, balki gapda ot ma'no tomondan bog'langan so'zdan shu otga bsrishni urganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so'roqlarini yaxshi bilishlari zarur. Kelishiklarnn o'zlashtirishda gapning asosini aniqlagach, gapda o'zaro bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) belgilash, ot bog'langan so'zni topish, so'roq berib, qaysi kelishik bilan turlanganini, birlik yoki ko'plikda

qo'ullanganini aniqlash izchilligida ishni uyushtirish maqsadga muvofiq. Masalan, quyosh zarin nurlarini sochmoqda. quyosh haqida aytilgan. quyosh-ega,bosh kelishikda, birlik. quyosh nima qilmoqda?-sochmoqda, kesim, sochmoqda nima qilmoqda? sochmoqda nimalarini? nurlarini,ot, tukshum kelishikda, birlikda.

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqadga muvofiq: 1. Kelishikning grammatik ma'nosi. 2. So'roqlari. 3. qo'shimchasi. 4. Gapdagi vazifasi. Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni engillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'mnlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari (ma'nosi, so'rog'i, qo'shimchasi, sintaktik vazifasi) bilan boshqa kelshiiklardan farqlanadi. Muayyan bir kelishikdagi otdan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab

etiladi, shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

Bosh kelishikning xususnyatlarini o'rganish bilan otning kelishik qo'shimchasi yuq. holati bosh kelishik ekani, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobe qilishi, ki m?, kim l a r?, n i m a?, n i m a l a r? so'roqlariga javob bo'lishi, gapda ega vazifasida kelishi haqida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilinadi; lug'atlarda otlar bosh kelishik shaklida berilishi va bosh shakl hisoblanishi, ba'zan egalik qo'shimchasi olib qo'ullashi bilan tanishtiriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashda qiynaladilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadilar. Bu kelishiklarning xususiyatlarini o'rganish da (bunday qiyinchilikning oldini olish va o'quvchilarda kelishiklardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini hosil qilish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun bu ikki kelishikning ma'nosi, so'roqlari, qo'shimchasi va gapdagi vaipfasi taqqoslanadn va suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Qaratich kelishigida turlangan ot: 1) karlshlilik ma'nosini bildirib, gapda boshqa otga bog'lanadi, u bog'langan ot egalik qo'shimchasi bilan qo'llanadi (o'quvchining daftari, daraxtning bargi kabi); 2)ki m(lar)n i n g?, n i m a (l a r)ning?, ba'zan qa erning? so'roqlariga javob bo'ladi; 3) -ningqo'shimchasi bilan qo'llanadi 4) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi; tushum kelishigida turlangan ot: 1) harakatni o'ziga olgan shaxs, narsa ma'nosini bildiradi, gapda doim fe'lga bog'lanadi (o'quvchini ko'rdim, kitobni o'qidi kabi); 2) k i m (l a r) n i?,

nima (l a r)ni? ba'zan qa erni? so'roqlariga javob bo'ladi; 3) -ni qo'shimchasi bilani qo'llanadi; 4) gapda ikkinch darajali bo'lak vazifasini bajaradi.

O'quvchilarppng bu ikki kelshik qo'shimchasidan nutqda to'g'ri foydalanish va ularni to'g'ri yozish haqidagi bilimini takomillashtirish uchun gapda otnipgqaysi so'z bilan bog'langanini aniqlash, so'roqlar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zni kelishik bilan turlab qo'yish, tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chirish, tanlab ko'chirish mashqlaridan, saylanma va eslatish diktantlaridan ko'proq, foydalaniladi.

Boshlangich sinflar dasturiga ko'ra o'quvchilarni qarat-qich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar jo'nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishi tu-shuntiriladi: a) oxiri jarangsiz undosh tovush bilan tugagan schuzlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga qo'shilganda talaffuzda ka eshitilishi, ammo aslicha yozilishi sinfga, iiiga, avkatga kabi so'zlarni tovush-harf tomonidan tahlil qilish biilan tushuntiriladi; b) o'quvchilar «Chindan dars, o'qish, g'ayrat etkazar har tilakka» gapini o'qib, tilak so'zining o'zgarishini ku-zatadilar; gapdagi tilakka bog'langan so'zni topadilar va shu so'zdan otga so'roq beradilar (etkazar nimaga? tilakka): bu junalish kelishigining so'rog'i ekanini aytadilar; tilakka so'zi so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi va tilak. — o'zak, -ka qo'shimimcha ekani aniqlanadi; so'ng uni tovush-h,arf jihatidan tahlil qilinib, o'zakning oxiri -k undoshi bilan tugagani, qo'shimcha ham k undoshi bilan boshlanishi aniqlanadi. Suhbat usuli bilan xulosa chiqariladi: jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri k undoshi bilan tugagan otlarga -ka shaklida

qo`shiladi. «Baliq\_ qarmoqqa ilindi. gapidagi qarmoqqa so`zi ustida shunday ishlanadi. Xulosani o`qituvchi rahbarligida o`quvchilarning o`zlari chikaradi-lar; oxiri q undoshi bilan tugagan otlarga junalish kelshshigi qo`shimchasi qa shaklida qo`shiladi.

O`quvchilar o`rip-payt kelishigining xususiyatlari bilap tanishtirilgach, kelishik qo`shimchasi –da ning -ta bo`lib eshitilsa ham -da shaklida yozilishi tushuntiriladi. Ba'zi qo`uvchilar o`rin-payt kelishigi o`rniga jo`nalish kelishigi qo`shimchasini ishlatib, xatoga yo`l qo`yadilar. Bunday xatoning oldini olish uchun o`quvchilar bilan fe'ldan jo`nalish va o`rin-papt kelishigida qo`llangan otga so`roq, berib, so`z birikmasini topishni ko`proq mashq; qilish va kelishiklarning so`rog`i va ma'nosiga qarab farqlashga o`rgatiladi. Masalan, bordi (qaerga?) — maktabga, bo`ldi (q aerda?) —maktabda; oldim (k i m g a?) — ukamga, ko`rdim (k i m d a?) — ukamda.

O`kuvchilvr chiqish kelishigining xususiyatlari bilan xam reja asosida tanishtirilib , ularga kelishik qo`shmchasining yozilishi tushuntiriladi.

Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaraliligini ta'minlaydigan shartlar, birinchidan, maqsadga muvofiq mashq, tanlash, mashq. materialini asta murakkablashtirib borish bilan o`quvchilarning mustaqqligini oshirsh, pkkichidan, imloni grammatik bilimnp takomillashtirib borish va o`quvchilarning nutqini o`stirish bilan bog`lab urgatishdir.

Shunday qilib, boshlang`ich sinflarda ot yaxlit xolda o`rganiladi va uni o`rganish o`qo`vchilar shu so`z turkumining belgilarini, vazifasini o`zlashtirishiga,

shuningdek, ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

Kelishik qo'shimchalari, ularning imlosi

Mazkur mavzuni o'rganishda ta'limning quyi bosqichlarida o'rganilgan kelishik qo'shimchalari va ularning imlosi haqidagi ma'lumotlar xotiraga olish va qo'shimcha topshiriqli ijodiy diktant o'tkazish maqsadga muvofiqdir: Gulchehra, kitob, A. ?odiriy, roman; Zulxumor, ko'rdi; kutubxona, bordi; o'qituvchi, so'radi ...

Kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtirish (ukamga oldim – ukam uchun oldim) holatlari nutq uchun muhim til me'yorlaridan ekanligini eslatib o'tish ham juda muhim.

Berilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari (ma'nodosh ko'makchili birikmalar ham) hosil qilish, ergash va bosh so'zlarni bir – biriga bog'laydigan qo'shimcha (ko'makchi) larni aniqlash, mazkur birikmalarni qatnashtirib, gap qurish yoki matn yaratish darsni DTS talablariga mos tashkil qilish borasida qo'yilgan ilk qadamdir.

Kelishik qo'shimchalarining talaffuziga oid bilimlarni mustahkamlash o'quvchi savodxonligini ta'minlaydi, so'zni o'z o'rnida ishlatish yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qiladi.

Otlarning yasalishi

Morfologiyada so'z tarkibi, o'zak (negiz), so'zlarning yasalishi, so'z turkumlari haqida olingan ma'lumotlar mustahkamlanadi, ularni tizimli va izchil o'rganish boshlanadi.

Hozirgi o`zbek orfografiyasidagi qoidalarining ko`pchiligi morfologik tamoyilga asoslangan. Shuning uchun o`quvchi morfologik xodisalarni o`rganishda ularning imlosi lug`aviy ma'no guruhlari hamda yasalishiga alohida ahamiyat berishi zarur.

1.3. Otning tarkibiy qismlari va yasalishi ustida ishlash

Otning morfologik tuzilishini yaxshi bilmagan o`quvchi so`z turkumlari mohiyatini ham anlay olmaydi; orfografiyadagi morfologik tamoyil bo`yicha yoziladigan so`zning imlosini ham puxta egallay olmaydi.

Qzbek tilida o`zak va negizlarga yasovchi qo`shimchalar qo`shilganda (ongQlaqangla, taraQqqtaroq, o`qiQvqo`quv ...) o ( a, a ( o, i (u ga almashib, tovush o`zgaradi.

- og`iz – og`zi, mag`iz – mag`zi, burun – burni kabi til xodisalari ro`y berganda bo`g`indagi unli tovush tushadi.

So`zlarning grammatik xususiyatlariga ko`ra ma'noli qismlarga bo`linishi o`quvchilarning so`z tarkibini o`rganishi va imlo qoidalarini to`la egallashiga yordam beradi.

So`z tarkibini aniqlashda amaliy – ijodiy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

quyidagi so`zlarning tarkibini aniqlang. Shakldosh o`zaklarni ajratib, izohlang.

Qqi - o`quvchi, o`quv, o`qituvchi; ish – ishchi, ishchan, ishli, beshi; maza – mazali, mazasiz, bemaza; tinch – tinchlik, notinch, bog` – bog`bon, bog`lam, bog`lovchi, bog`dor, bog`lama.

O`zakdosh, shakldosh, so`zlarni ajrating.

- Yasovchi qo`shimchalarning o`zakka qo`shilib, yangi ma'nodagi so`z hosil qilganligini sharhlang.

Namuna: o`qi – fe'l; o`quvchi, o`qituvchi – ot, shaxs oti; o`qituvchilik – kasb oti; bog` – mevali daraxtlar ekilgan joy, bog`bon – bog`ni parvarish qiluvchi, shaxs oti, bog`dor – boqqa egalik qiluvchi shaxs oti va h.k.

- Berilgan so`zlardan o`zakdosh va qo`shimchadosh so`z qatorlari hosil qiling. (Paxtakor, lolazor, suvoqchi, bilim, zargar do`stlik ...)

O`zakdoshlar	qo`shimchadoshlar
paxtakor (shaxs oti)	ishchi (shaxs oti)
paxtazor (joy oti)	suvchi (shaxs oti)
paxtachilik (kasb oti)	zardo`z (shaxs oti)
paxtasiz (sifat)	maxsido`z (shaxs oti)
paxtali (sifat)	bog`bon (shaxs oti)
paxtadek (ravish)	saroybon (shaxs oti)

- O`zakdosh va qo`shimchadosh so`zlar yordamida so`z birikmalari hosil qiling vap gaplar tuzing.

Shuningdek, ma'lum bir kasb - hunarga oid so`zlarning uyadoshlarini toping, berilgan matn ma'nodoshlarini topib, ularning ma'no nozikliklarini farqlash, tuyuqlardagi shakldosh so`zlarning ma'nolarini aniqlash, ular ishtirokida gaplar

tuzish va matn yaratish o`quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirishga, o`z fikrini ifodalash jarayonida til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o`rgatishdan iborat.

1.4. Qo`shma, juft, takror va qisqartma otlar ustida ishlash

O`quvchilar qo`shma otlar va ularning imlosi masalasida ko`p qiynaladilar. Shuning uchun ona tili mashg`ulotlarida so`z birikmalaridan qo`shma joy nomlari hosil qilish va aksincha, qo`shma so`zlarni so`z birikmalariga aylantirish mumkin.

So`z birikmasi	qo`shma ot
Issik ko`l	Issiqko`l
yangi er	Yangier
yangi yo`l	Yangiyo`l
katta qo`rg`on	Kattaqo`rg`on
oq qush	Oqqush
ko`ygan yor	Ko`yganyor

jadval

So`z birikmasi	qo`shma ot
Toshko`prik	tosh ko`prik
qumqishloq	qumli qishloq
Oqdaryo	oq daryo
Ko`korol	ko`k orol

Soykeldi	soy keldi
Mingbuloq	ming buloq

Jadvalda berilgan qushma joy nomlarini «otQot», «sifatQot», «otQfe'l», «sifatdoshQfe'l» qoliplari asosida yasalganligini anglash ham muhim.

O'quvchilarning mavzu yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun turli topshiriqli tarqatmalardan ham foydalanishi mumkin:

-1-

Birinchi qismi oq, qora, yuqori, o`rta, quyi so`zlaridan hosil bo`lgan qo`shma joy nomlariga misollar keltiring.

-2-

Ikkinchi qismi daryo, soy, ko`l, dengiz so`zlari bilan tuzilgan qo`shma joy nomlariga misollar topib yozing.

-3-

So`zlarning yozilishiga qarab ma'nosini ayting. Bosh va kichik, ajratib va qo`shib yozilish sabablarini tushuntiring.

Darsdan tashqari vaqtlarda o`tkaziladigan turli kechalarda, to`garak mashg`ulotlarida joy nomlarini o`rganish. Ular ishtirokida tasviriy matnlar yaratish orqali o`quvchilar ijodiy tafakkurini o`stirish mumkin. Bunda badiiy adabiyotga murojaat etish ham yaxshi samaralar beradi.

Juft otlar va ularning imlosi

Juft otlar va ularning yasalishi mavzusini o`rganish jarayonida quyidagi amaliy ishlarni bajarsa bo`ladi:

- uy – joy, kuch - quvvat, baxt – saodat kabi ma'nodosh so`zlardan so`z birikmalari hosil qilish va gvp tuzish;

- ota – ona, amma – xola, og`iz – burun kabi uyadosh so`zlardan gap tuzish va matn yaratish;

- kecha – kunduz, achchiq - chuchuk, oq - qora kabi zid ma'noli so`zlardan foydalanib, MYaBT – 4 ustida ishlash;

bug`doy – mug`doy, choy – poy, osh – posh kabi birinchi so`zning ikkinchi qismidagi bosh harfni p, m kabi harflar bilan almashtirish natijasida ma'nosi noaniq so`zlar hosil qilish va ularning ma'nosini, sharhlash kabi amaliy ishlarni bajarish, o`quvchi so`z boyligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli juftliklar orasida ba'zan tire (--) o`rnida – u (- yu) yuklamasi ishlatilishi haqida o`quvchilarga ma'lumot beriladi (ota – yu ona).

Takror otlar ustida ishlash

Otlarning yasalishi mavzusiga bog`liq bo`lgan takror so`zlar ustida ishlashda o`quvchilar yuqorida ko`rsatib o`tilgan «Otlarning yasalishi» nomli jadvaldan samarali foydalanishlari mumkin.

- ko`plik ma'nosi (etak – etak paxta, qop - qop bug`doy, chelak – chelak suv ...);

- davomiylik ma'nosi (chopa – chopa etib oldi, yura – yura toliqdi ...) ni bildiruvchi takror va gaplar qurish orqali o`quvchining nutqiy faoliyatini jadallashtirish, so`zlash mahoratini rivojlantirish nihoyatda foydali.

- takror ma'nosi (bosh – bosh uzum, tomchi – tomchi suv) ni anglatuvchi so`z birikmalarini qilish va nutqda qo`llashni o`rgatish yaxshi samara beradi.

Juft so`zlar ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so`zlardan hosil bo`lsa, takror so`zlarda grammatik ma'no bir so`zning yonma – yon kelishidan anglashiladi: yurishini qara, yurishini; gapiingni bil, gapiingni; ahvolini ko`r. ahvolini kabi.

Xullas ma'noni kuchaytirish uchun ketma – ket keltirilgan so`zlar takror so`zlarga kiritilmaydi. Takror so`zlar ta'kid, ta'na, nasihat kabi qo`shimcha ma'nolarni bildiradi.

Qisqartma otlarning yasash usuli va imlosi

Qisqartma so`zlar hosil qilish o`zbek tilida ham so`z yasash usullaridan biri hisoblanadi. AqSh, BMT, TDPU va h.k.

O`quvchilarning qisqartma so`zlar haqida olgan bilimlarini mustahkamlash, takrorlash uchun izohli diktant o`tkazish mumkin.

Izohli diktant

BAR, DTS, QzMU, SamDU, BuxDU, TDPU, Toshdavpeduniver-sitet, filfak va h.k.

Mustaqil ravishda qisqartma otlarga misollar topish, ular ishtirokida so`z birikmasi hosil qilish va gaplar qurish foydalidir.

1 – topshiriq. qisqartma otlarni o`qib, yasash holatlarini izohlab bering.

2 – topshiriq. Birinchi soʻzning bosh qismi, boshqa soʻzlarning birinchi harfi va aralash yoʻl bilan hosil qilingan qisqartma otlarga misollar keltiring, oʻqilishi va yozilishini tushuntiring.

3 – topshiriq. Soʻzlarning birinchi harfidan yasalgan qisqartma otlarga misol keltiring. Ularning yozilishi va oʻqilishini tushuntiring.


4 – topshiriq. qisqartma otlar qatnashgan beshta gap tuzing.

Qquvchilar izohli diktant tarkibidagi qisqartma otlarning toʻla shaklini yozib chiqadilar: BAR – Birlashgan Arab Respublikasi, DTS – Davlat ta'lim standarti, QzMU - Qzbekiston Milliy universiteti, filfakfilologiya fakulteti va h.k.

Qisqartma otlar orasiga hech qanday tinish belgilari qoʻyilmaydi. Agar shartli qisqartma boʻlsa, orada nuqta qoʻyiladi; ?. ?ulom, ?.O. (?amid Olimjon) kabi.

Qisqartma soʻzlar imlo, talaffuz, orfografiya bilan aloqadorlikda oʻrganiladi. Ular uslubiyatda takrordan saqlanish, yozuvda ixcham koʻrinishi bilan katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

«Ot» mavzusini oʻrganishda sathlararo aloqadorlik printsipligiga asoslanib, otli birikmalar hosil qilish, tavsiya etilgan soʻzlardan foydalanib «otQot», «sifatQot», «sonQot», «otQravish», «otQfe'l» qolipli soʻz birikmalari hosil qilish kabi amaliy ishlar oʻquvchilar soʻz boyligini oshirishning muhim omillaridandir. Ayniqsa, berilgan tobe yoki bosh soʻzga muvofiq keladigan soʻzlar guruhini kengaytirish ham samarali ish usullaridan biri hisoblanadi.



Ba'zan tobe so`zga ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so`zlarni tanlash ham foydalidir.

keng(tor)	go`zal
to`g`ri(egri)	chiroyli
yorug`(qorong`i) ko`cha	ko`rkam qiz
tekis(notekis)	nozik
serqatnov(kamqatonov)	barkamol
ozoda(iflos)	ko`xlik

Berilgan jadvallar asosida so`z birikmalari hosil qilish, birikmalar ma'nosini izohlash, qiyoslash, ular ishtirokida gaplar tuzish, matnlar yaratish o`quvchilar so`z boyligini oshirish va boyitish bilan bir qatorda so`zlash mahoratini shakllantirish, o`z fikrini ixcham, ravon, nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash jarayonini

tezlashtiradi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko`nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

«Ot» mavzusini urganish tizimi maksadga yunaltirilgan jarayon bulib, bunda shu suz turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari anik, izchillikda, bir-biri bilai ilmiy asoslangan bogliklikda urganiladi, shuningdek, otdan nutkda tugri foydalanish va tugri yozish malakasini shakdlantirish maksadida bajariladigan mashklar asta murakkablashtira boriadi.

Til xodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni urganish vazifalari, ukuvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan olda, xar bir sinf uchun material xajmi, ularni urganish izchilligi belnglangan.

Boshlangich sinflarda otni urganish vazifalari: 1) «ot» xakidagi grammatik tushunchani shakllantirish; 2) kim? surogiga javob bulgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? surogiga javob bulgan (narsa, xayvon, jonivor va boshalarni bildirgan otlarni farlash kunikmasini x osil kilish; 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, xayvonlarga kuyilgan nomlar va geografik nomlarni bosh xarf bilan yozish kunikmasini shaklantirish; 4) otlarda son (otning birlik va kuplikda kullanishi) bilan tanishtirish; 5) otlarni egalik kushimchalari bilikan tugri kullash kunikmasini shakllantirish; 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik kushimchalarning yozilishi xakida malaka xosil kilish; 7) ukuvchilar lugatini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutkda anik urinli foydalanish malakasini ustirish; 8) suzlarni talil klish, takkoslash, umumlashtirishni bilish xisoblanadi.

I Bu vazifalarning xar biri aloxida emas, balki bir-biri bilan uzaro boglik xolda xal etiladi. Shu bilan birga, «Ot» mavzusini urganishning muayyan boskichida bajarish lozim bulgan bir vazifani xal kilishga kuprok axamiyat beriladi Masalan, I—II sinflarda suz turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, suroklari 3-sinfda esa otga atama beriladi.birlik va kuplikda kullanishi}ni uzlashtirishga, 4sinfda otning egalik kushimchalari bilan kullanishi, kelishiklar bilan- turlanishi va kelishik kushimchalarining ezilishini urganishga e'tibor beriladi. Ukuvchilarning nutki va tafakkurini ustirish vazifasi esa mavzuni urganishning barcha boskichlarida xal kilinadi. Grammatik materialni urganish va orfografik malaka xosil kilishning butun jarayoni ukuvchilar lugatini boyitishga, boglanishli nutk malakalari va fikrlash kobiliyatlarini ustirishga karatiladi.

Suz turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi, Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash xisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, kush,xayvon, asalari), er va osmonga oid narsalar (kussh,yulduz, daryo], tog usimliklar (paxta, beda, gul), vokealar (yigin. majlis, revolyutsiya), tabiat xodisalari (shamol, buron, yomgir, momakalldirok), belgi-xususiyat (shillik kuchlilik, samimiyat). xarakat xolat (uyku, sevinch, kurash), urin va vaktSyoz,baxor, joy) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va kuplikda kullanadi, egalik kushimchalari bilan uzgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda kuprok, ega, tuldiruvchi, aniklovchi, shuningdek, xol va kssim vazifasida keladi. Ot nutkda sifat, son, olmosh, fs'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari| grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun xam ot xakidagi bilim ukuvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni urganishda izchillik. Otni urganishga tayyorlov boskichi savod urgatish davriga tugri ksladi. Bu boskichda ukuvchilar shaxs va narsalarni va ularning nomi bulgan suzlarni farklashga urganadilar,suzning leksik ma'nosi ga e'tibor oshiriladi,ma'nolarini xisobga olgai xolda suzlar (kushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va xokazolarni bildirgan otlar) ni guruxlash kunikmasi shakllantiriladi. Suzlarni leksik ma'nosi asosida guruxlash mashklari otlarni takkoslash, uxshash tomonlarini aniklash, abstraktlashtirish kunikmasini ustiradi. Shunga karamay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun ukuvchilar suznnng anik ma'nosini etarli bimaydilar, suzning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik beligilarini xam uzlashtirish zarur.

Keyingi boskichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (k i m? yoki n i m a? surogiga javob bulishi, shaxs,narsani bildirishi tushuntiriladi). Ukuvchilar kim? surogiga javob bulgan suzlarnn nima? surogiga javob bulgan otlardan farklashga urganadilar. Bu boskichda ular suzlarnn surok berish bilan farklashni bilib oladilar, bolalarda mavxum grammatik tafakkur usa boradi. Bolalarda kupgina atokli otlarni bosh xarf bilan yozish kunikmasi shakllana borad i. II sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoli va turdosh otlar (atamasiz) xakidagi bilim chukurlashtiriladi.

«Ot» tushunchasini shakllantirish uchun shu suz turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik guruxlarga ajratish, barcha otlarga xos bulgan belgilarni kursatish,

ularning nutkimizdagi ahamiyatini ochish muxim ahamiyatga ega. Shu maksadda mavzuni urganishga bagishlangan birichi darslardayok, shaxs, narsani bildiradigan suzlar tizimga solinadi. Kishilarni, buyum, usimliklarni, xayvonlarni, tabiat xodisalarini, vokealarni bildiradigan suzlar guruxlarga ajratiladi. Shu suzlarning xammasi uchun umumiy bulgan belgilar aniklanadi: bu suzlar shaxs, narsalarni bildirib k i m? yoki n i m a? surogiga javob buladi. Dasturga kura, boshlangich sinf ukuvchilarini sifat va boshka suz turkumlaridan yasalgan mavxum ma'nodagi (yaxshmlik, guzallik, ishonch, sevinch, ukinch, kurkinch, tayanch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va ukuvchilar kizikib surasalar, otning bolalar urgangan bslgilari asosida (nima ish kitobidan matn tanlab, ukuvchilarga matndagi otlarni topishni, sungra matnni shu suzlarsiz ukishni topshiradi. Ukuvchilar matnni otlarni tushirib koldirib ukiganda, matn mazmunini tushunib bulmasligini anglaydilar. Xulosa chikariladi: ot arofimizni urab olgan shaxs vanarsalarning nomi, bu suzlarsiz bir-birimizga uz fikrimizni tushuntirashuntira olmaymiz.

Otlarda son bilan tanishtirish.

3-sinfda «Otlarda son», ya'ni otlarning birlik va kuplikda kullanishi ustida ishlash jarayonida ukuvchilarda: 1) birlik va kuplikda kullangan otlarni ma'nosi va kushimcha orkali farklash, 2) birlikdagi otdan kuplik shaklidagi va aksincha, kuplikdagi otdan birlik sondagi ot xosil kilish 3) gapda suzlarning boglanishini xisobga olgan xolda, otlardan nutkda tugri foydalana olish kunikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va kuplikda kullanishi takkoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Bunnng uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar takkoslanadn: daftar — daftarlar, kalam — kalamlar, nok- noklar kabi. Suxbat asosida daftar suzi nechta (bitta) predmetni va daftarlar suzi nechta (ikki va undan ortik) predmetni bildirishi aniklanadi. (Boshka suzlar bilan xam shunday ishlanadi.) Oddiygina xulosa chikariladi va umumlashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda kullanyadi, agar ikki va undan orttk shaxs-narsani bildirsa, kuplikda kullanadi. Kuplikdagi otni yasash uchun | birlikdagi otga -lar kushimchasi kushiladi. Birlikdagi otlar k i m? yoki n i m a? surogiga, kuplikdagi otlar esa k i ml a r? yoki nim a l a r? surogiga javob buladi.

Bu sinf ukuvchilariga fakat birlikda kulllnadigan otlar, birlik shaklida kullangan armiya, kushin, xalk kabi otlar kuplik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga kuplik kushinmchasi kushilganda anglatadigan ma'nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar ukuvchilar bu xakda savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va kuplikda kullanishini kuzatish aslida suz shakli ustida ishlashning boshlangich boskichi xisoblanadi. Bunda ukuvchilar otlarni kuplik kushimchasi bilan uzgartirish, ya'ni otga shakl yasovchi qushimcha kushish bilan suzning leksik ma'nosi uzgarmasligiga ishonch hosil kiladilar.

II BOB. SIFAT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH

So`z boyligini oshirishda sifat so`z turkumining imkoniyatlari cheksiz.

Qquvchilar avvaldan ma'lum bo`lgan rang-tus, maza-ta'm, shaxs, narsa buyumning xususiyatlari, shakl, hajm, o`lchov bildiruvchi so`zlar, ularning qanday? qanaqa? qaysi? So`roqlari belgi darajasini bildirishi kabilarga suyangan holda uning ma'nolarini ajrata oladilar.

Sifat haqida tizimli va izchil ma'lumot olish natijasida ular so`roqlar yordamchi vosita ekanligini tushunib etadilar: sifat narsa - buyum belgisini ko`rsatuvchi mustaqil so`zgina bo`lib qolmay, vazifasiga ko`ra ot, otlashgan so`z, son kabilarning xususiyatlarini aniqlaydi. Nutqning aniqligi, go`zalligi, rang - barangligi, ta'sirchanligi, ravonligi ko`proq shu turkumdagi so`zlarni bilish, ularni to`g`ri, o`rinli qo`llash bilan bog`liq.

2.1. Sifatning ma'no guruhlari va darajalarini o`rganish

Sifatlar ma'no guruhlariga ko`ra etti turga bo`linadi;

shakl, hajm, o`lchov sifatlari: katta, baland, keng, chuqur, uzoq, yaqin...;

rang - tus sifatlari: oq, qizil, yashil, ko`k...;

belgi-xususiyat sifatlari: sho`x, og`ir, sodda, mehribon...;

holat sifatlari: issiq, tinch, osuda, uyatchan...;

maza - ta'm sifatlari: achchiq, nordon, taxir...;

xid sifatlari: yoqimli, xushbo`y, badbo`y ...;

vaqt sifatlari: tushki, yozgi, ertagi ...;

kabilar ustida alohida to`xtalish, ularning asliy va nisbiyligini aniqlash, ma'nodosh va zid ma'noli so`zlar tanlash, sifatlarning darajalanish lug`atini tuzish, mazkur sifat turlariga ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so`zlar tanlash, o`xshatishlar topish, ular ishtirokida so`z birikmalari hosil qilish, gaplar qurish va matn yaratish kabi amaliy ishlar o`quvchi so`z boyligini oshirish va so`zlash mahoratini shakllantirish, o`quvchi nutqini boyitishda sifatning ma'no guruhlari ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatlarning ma'naviy guruhlarini o`rganishda o`xshatma so`zlar (qorday oq, suvday tiniq), sifat iboralar, ularga zid ma'noli so`zlar (iboralar) topish, ular orasidagi ma'no nozikligini, mayda farqlarini aniqlash, bir uyaga guruhlash ro`yxatini davom ettirish singari mustaqil ish turlaridan foydalanish samarali bo`ladi. Bunday ishlarni o`zaro musobaqa yo`nalishida o`tkazish mumkin: sinfdagi o`quvchilar ikki guruhga bo`linadi. 1 – guruh insondagi ijobiy fazilatlarni, 2 – guruh shu so`zlarning zid ma'nolari – salbiy fazilatlarni topadilar.

1 – guruh: odobli, aqlli, mexribon, kamtar, tirishqoq, epchil, chaqqon, rostgo`y, tarbiyali ...

2 – guruh: odobsiz, aqlsiz, bemehr, manman, yalqov, yolg`onchi, tarbiyasiz, dangasa, tanbal ...

Mazkur so`zlar so`z birikmalari hosil qilish, gaplar qurish, matnlar yaratishga zamin bo`ladi. Ushbu ish jarayoni o`quvchilar so`z boyligini oshiradi, ijodiy tafakkurni kengaytiradi, nutqning sayqallanishiga yordam beradi.

Yangilangan ta'lim mazmuni umumiyga qarab borishni, til haqidagi qoidalarni emas, tilning o`zini o`rgatishni, nazarda tutmoqda. Ushbu boylikni o`z

nutqida to'g'ri va o'rinli qo'llash usullarini o'rganish, o'zining mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fikr mahsulini tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, matn yoki she'riy ifoda sifatida yuzaga chiqara olish shu kunning talabidir. Bunday ko'nikma va malakalarni izchillik bilan rivojlantirish hamda yosh avlodni nutqiy taraqqiyot sari yo'naltirish DTS ning bosh talabadir.

Shunday qilib, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchiga boriladigan har bir topshiriq ularda so'zga ehtiyoj hissini hosil qilishi, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash va kengaytirish, berilgan mant ustida ishlash va matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Sifat so'z turkumini o'rganishda «ot (sifat, ravish)Qfe'lQar qolipli, «sifatQot» so'z qolipli hosilalar (tinchliksevar, ertapishar, tezpishar, xalqparvar, tezyurar va h.k.) ustida ishlash o'quvchilar lug'atini yangi so'zlar bilan boyitishda so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish va matn yaratishiga yo'naltirishda ancha qo'l keladi.

Masalan: 1 – topshiriq. «Orzular» so'zi bilan «sifatQot» so'z qoliplari yordamida so'z birikmalari hosil qiling. Ajratilgan so'z bilan ma'nodoshlik qatorlari hosil qiling.

a. Yangi,	muqaddas,	gard yuqmagan
musaffo	so'ngsiz	fusunkor
munis	nihoyasiz	bebosh
shirin	bitmas -	jilovsiz
pok	- tunganmas	lahzalik orzular
cheksiz	nurafshon	o'tkinchi

yuksak	munavvar	aldoqchi
samoviy	qanotli	beqaror
nafis	jilvakor	nozik
nurli	ma'nos	g'amgin

b. Musaffo – toza, pok, gard yuqmagan, bug`ubor va h.k.

v. Nurli – nurafshon, munavvar, samoviy va h.k.

Yuqorida bajarilayotgan topshiriqlar o`quvchini izlanishga, nimalarnidir topishga, kashf qilishga undaydi, yo`naltiradi. So`z sehri, uning butun jozibasi, go`zalligidan ilhomlanishga omil bo`ladi.

2 – topshiriq. ?osil qilingan so`z birikmalari ishtirokida badiiy matn yarating.

1 – matn

Endigina akademik litseyni tugatib pedagogika universitetiga o`qishga kirish uchun tayyorgarlik ko`rayotgan Zulxumor bir uyum kitoblarga ko`milib o`tirardi.

qizginaning ko`zi kitob sahifalarida bo`lsa – da, hayoli uzoqlarda ... U beg`ubor, ma'sum yoshlikning qanotli orzulariga mahliyo ro`parasidaturgan qadrdon dugonasi Gulchehrani ham payqamas, ko`rmas edi ...

2.1. Matnni davom ettirib, xulosa qiling.

2.2. Yaratgan matningizga sarlavha tanlang. Undagi gaplar so`z birikmalarini ajratib sanang. «Orzular» so`ziga ma'nodosh va uyadoshlar tanlang.

Suv deya sahroda xarsillab yotgan,

Omonsiz bo`ronlar qahridan qotgan-

Ko`rimsiz, kimsasiz saksovulga ham

Orzular tug`yonibegona emas

Pinxoniy orzular jilosi, sehri

Qtkinchi bulutni bag`riga chorlar

Sahroni gulshanga aylantirguvchi

Munavvar orzular billurdek porlar!!!

Va unsiz termularbulut ortidan ...

2 – matn

Ming yillik ushalmas orzular haqqi,

Ming yillik qo`l etmas moziylar haqqi,

Bir nafas yo`l bering tun hiloliga,

Unga ham ko`z suzsiz muhabbat baxti.

Samo sarxadining munis bekasi

(Fusunkor orzular bahridan o`tib)

Oymoma mo`ralar harir tuynukdan

Muhabbat sehridan umidvor bo`lib ...

3 – topshiriq. She'rni ifodali o`qing. Ma'nosini sharhlang. qofiyadosh so`zlarni ajratib guruhlang. «SifatQot» qoshidagi sifatlarni boshqa ma'nodosh va uyadoshlari, o`xshatmalar bilan almashtirib ko`ring.

Yuqorida birin – ketin berilayotgan ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchining quyidagi bilimlar yuzasidan egallangan nutqiy ko`nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash mumkin bo`ladi (reyting asosida).

So`z boyligi;

So`z birikmalari hosil qila olish malakasi;

«Soʻz qoliplari» yordamida birimlar yasash;

Nutq sharoitiga mos ravishda toʻgʻri va oʻrinli jumla qurishi;

Qz nutqida tasviriy ifoda va iboralarni qullay olishi;

Soʻzlarni koʻchma ma'noda ishlata bilishi;

Sifat mavzusi yuzasidan test topshiriqlari tuza olishi;

Qz fikrini she'riy usulda ifodalay olishi;

She'rdagi qofiyadosh soʻz va birikmalarining oʻrnini va oʻzini almashtira olishi;

qofiyadosh soʻzlarga ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli soʻzlar tanlay olishi;

Shakldosh soʻzlarga ma'nodoshlar tanlashi;

Yangi matn yarata olishi va h.

«Sifat» mavzusini oʻrganishda dars mashgʻulotlari ana shunday bosqichli ketma – ketlik printsiptiga asoslanib olib borilsa, oʻquvchi xususiydan umumiyga (matn yaratish) umumiydan xususiyyga (matnni tahlil qilish) qarab borish, mustaqil, ijodiy mushohada yuritishning eng muhim vosita tanishtirilib borilsa, bolaning nutqiy faoliyati shakllanadi, rivojlanadi va taraqqiy etadi.

2.2. Sifat darajalarini oʻrganish

Belgi bildirgan soʻzlarning ma'nolari turli xil boʻladi. Sifatlar rang – tus, hajm – shakl, maza – ta'm, xil – xususiyat ma'nolarini bildiradi. Lekin narsa – buyum, voqea- hodisalardagi belgi ortiq yo kamroq boʻlishi mumkin: «...Qzgalarni ayblashdan oldin ularni tushunishga urinib koʻraylik: bu tanqid

qilishga nisbatan foydaliroq, muruvvatliroq, atrof – muhitga hayrihoh, g'oyat bardoshli va o'ta muruvvatli bo'lishni tarbiyalaydi ...».

Sifat darajalarini o'rganishda va o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda berilgan matndagi sifatlarni ajratish, qiyoslash va o'zaro farqlash, ular ma'nosini izohlash sifat darajalari yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlaydi, o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Mazkur mavzuni o'rganishda «Sifat darajalari» nomli jadvaldan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

2.3. Ko'chaytirma va orttirma sifatlari

Kuchaytirma va ozaytirma sifatlarni o'rganishda va o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda lug'at diktanti yozish, undagi kuchaytirma va ozaytirma sifatlarni ajratish o'zaro qiyoslash, farqlash, ularning shakl va ma'nosini sharhlash-kuchaytirma hamda ozaytirma sifatlari yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlaydi, o'quvchining fikr ifodalash jarayonida sifatdan foydalanish imkoniyatlari kengaytiradi, nutq madaniyatini oshiradi.

Lug'at diktanti

qizil, qizg'imgir, qip - qizil; qora, qoramir, qop- qora, tim qora; butun butungina, but – butun; xom, xomroq, g'irt hom; xo'l xo'lroq, jiqqa xo'l; dumaloq, dumaloqqina, dum – dumaloq ...

O'quvchilarda og'zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun kuchaytirma va ozaytirma sifatlari o'zaro qiyoslanadi, yozilishi hamda ma'nosi izohlanadi.

Lugʻaviy diktantlar oʻtkazish, lugʻaviy va uslubiy nozikliklarni anglash, kuchaytirma – ozaytirma sifatlarni oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqlarida oʻrinli qoʻllash koʻnikmasini shakllantiradi.

Sifatning yasallishini oʻrganish

Qquvchining belgiga oid bilimlarini shakllantirish va boyitishda yasama sifatlarni maʼnan va mazmunan qiyoslash taʼlimiy, mantiqiy va uslubiy jihatdan oʻziga xos ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuni oʻrganishda, «Sifatlarning yasallishi» nomli jadvaldan foydalanish mumkin.

Jadvalda sifatning morfologik va sintaktik usulda yasallishi oʻz ifodasini topgan.

1. Morfologik usulda ot va feʼl soʻz turkumlariga oid soʻzlarga yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali;

otQsifat yasovchi qoʻshimcha qolipida: dardchil, qalbaki, oilaviy, odamsimon, koʻylakchan, gapdon;

feʼlQsifat yasovchi qoʻshimcha qolipida:

horgʻin, kuyunchak, belanchak, erinchoq, hurkovich, topqir, bilagʻon, tirishqoq, etuk sifatlari yasalladi.

2. Sintaktik usulda soʻzga soʻz qoʻshish orqali qoʻshma sifatlari hosil qilinadi.

Ular, koʻpincha, qushib yozilladi.

qaysi soʻz turkumlaridan boʻlishiga qarab qoʻshma sifatlari 4 turga boʻlib oʻrganilladi.

1. SifatQsifat: olachipor, nim pushti ...
2. SifatQot: ochko`z, qimmatbaho, qora ko`z ...
3. RavishQfe'l: ertapishar, kechpishar ...
4. OtQot: shakarpalak, kampirdahan ...
5. OtQfe'l: molboqar
6. SonQfe'l: beshotar

Juft sifatlar ham sintaktik usul bilan – so`zga so`z qo`shish orqali hosil qilinadi. Bunday sifatlar o`rtasiga chiziqcha quyilib yoziladi:

1. Antonim sifatlar: yosh - qari, past – baland, yo`g`on- ingichka, katta – kichik ...
2. Ma'nosi yaqin sifatlar: qing`ir - qiyshiq, yakka – dukka,
3. SifatQohangdosh so`z: ola – bula, oq - poq
4. qo`shma va juft sifatlar – u (-yu) yuklamasi bilan yozilganda, ikki so`z o`rtasiga chiziqcha quyilmaydi: oqu - qora, baland – u past, katta – yu kichik kabi.

Xulosa qilib aytganda, «Sifat so`z turkumi» ni o`rganish, uning ichki ma'no guruhlari ustida ishlash, sifatlar ishtirok etgan so`z birikmalari hosil qilish, unga oid materiallarni semantika va uslubiyat (gap tuzish), sifatlar shakldosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, har xil o`yin – topshiriqlardan foydalanish o`quvchilar so`z boyligini oshirish va nutqiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Maktablarda ona tili urgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining xozirgi boskichida davlatimizning maktab oldiga quygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo'pqirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'yaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda uz fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish kunikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bulib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yunaltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'lik, holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); suzlarning o'zgarishi gapda so'larning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); suzning morfemik tarkibi va suz yasash usullari haqidagi (so'z yasashiga doir); suzlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuastion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, suz yasashiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuastion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi (fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa kunikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish

ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko`nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, tanqqoslash kabilar kiradi. Kursatilgan ko`nikmalarni o`quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq, ishlash ularning uquv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko`nikmalar bilan predmetlararo ko`nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda, o`quv-tarbiyaviy jarayonda shakilantiriladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Konuni. T.: 1997
4. Uzbekiston Respublikasining Milliy dasturi. T.: 1998.
5. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son .
6. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son
7. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod urgatish darslari . T.: Ukituvchi .1996 .
8. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Alifbe .(Savod .) ” T .: “Ukituvchi ”1999 yil
9. Safarova R . va boshkalar “Alifbe ” T ., 2006 .
10. Gulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2006
11. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2003.
12. Gafforova T. Gulomova X. Eshturdieva G. 1- sinfdan savod o'rgatish. T.: Sharq. 1996.
13. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: Ukituvchi .1999.
14. Abdullaeva K. va boshkalar . Ona tili . T.: Ukituvchi .1999.
15. Gapparova T., Shodmonov E., Gulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: Sharq. 2005.

- 16 Gulomova X. Gafforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.
- 17 . Kosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.: Cho`lpon. 2005.
- 18 Kosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho`lpon. 2004.
- 19 Fuzailov S. , Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: Ukituvchi .2005.
20. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: Ukituvchi .2005.
21. Ikromova R. Gulomova X. Yo`ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: Ukituvchi . 2007
22. Gulomova X. Yo`ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: Ukituvchi . 2003
23. Gaffarova T. va boshkalar . Ukish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006
24. Gaffarova T. va boshkalar. 1-sinfda ukish darslari . T. : 2003 .
25. Abdullaeva K. va boshkalar. Ukish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.
26. Abdullaeva K. va boshkalar. 2- sinfda ukish darslari , T.: 2004
27. Umarova M. , Xakimova Sh. Ukish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .
28. Umarova M . 3- sinfga ukish darslari , T.: Uqituvchi. 2004 .
29. Matchonov S. Shojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. Ukish kitobi . 4- sinf uchun. T.: 2007.
30. .Matchonov S. va boshkalar 4- sinfga ukish darlari , T., 2007.
24. Xudoberganova M. “ Bayonlar tuplami ” Toshkent 1995
25. Rojdestvenskiy N.S. Kustareva V.A. Metodika nachalnogo obucheniya russkomu yazo`ku. Prosvehenie. M.: 1965.

26. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbikiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
27. Yuldoshev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari, T.: Ukituvchi. 2004.
28. Umumiy psixologiya. T.: Uqituvchi. T.: Uqituvchi. 1999.
29. Uquvchi ma'naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.
30. Kudryashov N.I. Vzaimosvyaz metodov obucheniya na urokoax literaturo`. M.: Prosveshenie. 1981.